

16 YOSHLI CHEMPION

2-betda



Teng

Vatan yagonadir, vatan bittadir!

YULDUZI

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

2007-yil

1 – 7-oktabr

N:40

(66633)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqq boshlagan

Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitmiş ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Alisher NAVOIY

Bayramingiz muborak, aziz ustozlar!

DUSHANBADAN

TO'LIQ MA'LUMOT KERAK

Chortoq tumanidagi 17- maktab o'quvchilarining quvonchi cheksiz. Sababi, ustozlari Asqarali Mamatov Moskvada o'tkazilgan rus tili o'qituvchilarining xalqaro ko'rik-tanlovida ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Biz ham ustozni g'oliblik bilan qutlaymiz va maktab o'quvchilaridan ustozlari haqidagi to'liq ma'lumotlarni kutib qolamiz.

KOREYS RASSOMLAR KO'RGAZMASI

Poytaxtimizning «Xalqlar do'stligi» saroyida etnik koreyslarning O'zbekistonda yashayotganining 70 yilligiga bag'ishlangan tantanali kecha bo'lib o'tdi. Shuningdek, O'zbekiston Tasviriy san'at galereyasida o'zbekistonlik koreys rassomlar ko'rgazmasi ochildi. Yurtimizda turli millat va din vakillari azal-azaldan bir oila farzandlaridek ahil va inoqlikda yashab kelmoqda.

HAMMADAN CHAQQON

Bayram munosabati bilan Jizzaxda yoshlar o'rtasida 3 metr masofaga yugurish musobaqasi o'tkazildi. Unda Olimpiya zaxiralari sport kolleji talabasi Marat Turmuhammedov hamda Jizzax tumanidagi K.Azimov nomli maktab o'quvchisi Nigora Abdumurodova hammadan chaqqon ekanliklarini isbotladilar.

Xabarlar respublika matbuoti materiallari asosida tayyorlandi

DUSHANBAGACHA

Suratlarda: Poytaxtimizning 322- va boshqa maktab o'quvchi va ustozlari.

MAKTAB ZINASI BALAND EDI

Birinchi marta 1-sinfga borgan kunimni eslasam, yuragim xapqirib, vujudimga ilqlik yuguradi. Baland-baland maktab ostonasidan oshib o'tish uchun anchagina ter to'kishim lozimligini o'ylab, biroz cho'chigandim, to'g'risi. Axir maktab men uchun notanish qonun-qoidalarga to'la yangi bir olam edi-da.

Shunda qarshimda jilmayib turgan birinchi ustozim Gulsara opa Islomovani ko'rdim-u, hayajondan entikayotgan mittigina yuragim taskin topgandek bo'ldi. Gulsara opani azbaroyi yaxshi ko'rganimdan qalbimda o'qituvchi bo'lish istagi tug'ilgandi. Biz o'quvchilarning shaxs sifatida kamolga yetishimizda o'qituvchilarimizning mehnati beqiyos.

Barcha ustoz-murabbiylarni kasb bayramlari bilan muborakbod etaman. Ularga butun olam yaxshiliklarini tilayman.

Shahnoza
RAVSHANOVA,
Toshkent viloyati,
Chirchiq shahri



**MEHRIDARYO
USTOZIM,
SIZGA QILAMIZ
TA'ZIM!**

SAMARQANDSAN

Jahondin nusxa olgansan,
Qo'shiqni kuyga solgansan.
Dilimni math etolgansan,
Aziz dargoh Samarqandsan.

Ipak yo'lda karvon o'tgan,
Dong'i dunyo bo'ylab ketgan.

Qancha ulug' zotlar o'tgan,
Ziyoratgoh Samarqandsan.

Po'ikan yozar so'zin aytgan,
Islom Nazar sozin chertgan.
Fozil, Jumanbulbul o'tgan,
Sochgan ziyo Samarqandsan!

Eshmamat **TURDIYEV,**
Samarqand viloyati

USTOZ DESAM...

Ustozlar haqida gap ketganda, ko'z oldimda maktab ostonasida ilk bor qarshi olgan, ko'zlari mehrga to'la birinchi ustozimning siymosi gavdalanadi. Ularni ikkinchi onam, to'g'ri yo'lga boshlovchi yo'l boshchim, degim keladi. Shu insonning, qolaversa, maktabdagi barcha ustozlarimning bergan bilimlari tufayli hozir tahsil olayotgan bilim maskanimda ham a'lochilar qatoridan joy oldim, guruh rahbarimizning eng yaqin ko'makchisiga aylandim.

Bugun ularni, shuningdek, kollejimiz rahbari Turg'un aka Ashrapov hamda Rahbar opa Daminovani, guruh rahbarimiz Robiya opa Bobekovani ayyomlari bilan samimiy muborakbod etaman. Baxtimizga

doimo omon bo'lishsin.

Nodira **TURG'UNOVA,**
Chilonzor Maishiy xizmat ko'rsatish kasb-hunar kollejining 1-bosqich talabasi



O'QITUVCHI BO'LMOQCHIMAN

Men kelajakda o'qituvchi bo'lmoqchiman. Fursatdan foydalanib, maktabimizdagi va respublikamizdagi barcha ustozlarni yaqinlashib kelayotgan bayramlari bilan muborakbod etaman.

Gulchehra **ESONBOYEVA,**
Sirdaryo viloyati, Mirzaobod tumanidagi
1-umumta'lim maktabining
4-«D» sinf
o'quvchisi



MENING TABRIGIM

Ustoz misoli gulzor, biz esa bu gulzorning chechaklarimiz. Men fursatdan foydalanib, maktabimizdagi barcha o'qituvchilarni bayramlari bilan chin yurakdan muborakbod etmoqchiman. Ularning sermashaqqat, sharaflil ishlarida ulkan muvaffaqiyatlar tilayman.

Maftuna **NORBOYEVA,**
Qashqadaryo viloyati,
Shahrisabz tumanidagi
75-maktabning 9-«A» sinf
o'quvchisi

SOVG'AMIZ - «5» BAHOMIZ,

- deydi poytaxtimizdagi 59-xitoy tili chuqur o'rgatiladigan maktabning 5-sinf o'quvchisi Umidaxon Ro'ziboyeva. Bu sovg'a kimga ekan, deb qiziqayotgan bo'lsangiz kerak-a?

Bu sovg'a sevimli ustoz Klara Muzaffarovaga ekan. 1-sinf boshlab o'qish va yozishni mehr bilan o'rgatgan ustozlarini barcha o'quvchilar birdek hurmat qilisharkan.

Umidaxon kelgusida Klara opasidek o'qituvchi bo'lmoqchi.

- Mening o'quvchilarim ham albatta bilag'on bo'lishadi, buning uchun men ko'p o'qiyapman, - deydi qahramonimiz.



JAMILA

16 YOSHLI CHEMPION

1-betda

Kutilmagan quvonch bir necha karra O'zbekiston chempioni, Osiyo va YevroOsiyo chempioni Shohruh Qo'chqorov uchun ham unitilmas kunga aylandi. Uning murabbiylari Ravshan Ahmadjonov va taniqli kurashchi Akobir Qurbonovga shogirdining Brest shahridan yana chempion bo'lib qaytishi yuksak baxt edi. Chempion! Bu so'z jaranglaganda sportchining yil davomida chekkan zahmatlari va tinimsiz mashaqqatlari hayqiriqqa aylanadi.

Shohruh Qo'chqorov yurtimizning umidli sportchilaridan. Ayni kunda iqtidorli sportchimiz O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutining 1-bosqich talabasi. U dzyudo bo'yicha O'smirlar o'rtasida Jahon kubogi (Antariya 2005) sovrindori, kurash bo'yicha jahon chempioni (Tver 2006), Sambo bo'yicha Osiyo chempioni (Toshkent 2007) bo'lib ko'pchilikning nazariga tushdi. Ustozlar va murabbiylar kuniga sanoqli kunlar qolganda Belorussiyaning Brest shahrida Sambo bo'yicha o'tkazilgan yoshlar chempionatida qatnashgan yosh sportchimiz Evroosiyo chempioni degan nufuzli nomga sazovar bo'ldi.

Biz Shohruh Qo'chqorovga shohsupani hech kimga bermasligini tilaymiz.

G'oliba opa

TARIXDA QOLIB KETDI

«Tong yulduzi»ning bu galgi safari Shayxontohur tumanidagi 276-umumta'lim maktabiga bo'ldi. Kiraverishdagi «Maktabimizni hududdagi eng go'zal maskanga aylantiramiz» shiorini o'qib, unga amal qilishayotganmikin, deya atrofga razm soldik. Maktab hovlisi suv sepib supurilgan, daraxt taglari chopib yumshatilganini ko'rib, shior bejiz osilmaganligiga ishonch hosil qildik. Ish bilan band bo'lgan maktab direktorini ancha kutganimizdan so'ng ular bilan yaqindan tanishib oldik.

Maktabda bir kun

– Maktabimizdagi o'qituvchilarni haqiqiy fidoiy ustozlar desam, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki ular yosh avlodning mukammal bilim olishlari uchun barcha sharoitlarni bekam-ukost muhayyo qilishga harakat qilishadi, – deydi maktab direktori Ozoda MASHARIPOVA.

Ana shu o'tgan uch oy mobaynida mehnat ta'tilidagi o'qituvchilar qatorida Mehri Fidosova, Hasan Toyirov kabi jonkuyar insonlar hamda «Mehrjon – Mehribon» o'quv kombinati rahbari Anvarjon Maqsudov maktabning ta'mirlash ishlarida katta yordam berdilar. Maktabimizning



oldingi ko'rinishi endi tarixda qolib ketdi. Buni suratlardan ham ko'rib, bilib olishingiz mumkin. Yangi o'quv yilida ta'mirlangan sinf xonalariga kirgan o'quvchilarimiz ko'zidagi hayrat va quvonchni ko'rib, barcha charchoqlarimiz chiqib ketdi.

«Yuz marta eshitgandan, bir marta ko'rgan afzal» naqliga rioya qilib, sinflarni birma-bir ko'zdan kechira boshladik. Geografiya, biologiya, kimyo, tarix, mehnat xonalari chiroyli jihozlangan. O'quvchilarning barchasi bir xilda maktab formasi kiyishgan. Hattoki, boshlang'ich sinfo'quvchilari uchun yangi partalar olib kelingan ekan.

– Ota-onalar ixtiyoriy ravishda maktabga yordam qilishmoqda, – deydi boshlang'ich sinf o'qituvchisi Shohida Solihova. Masalan, Mahkam Zokirov, Dilshod Muzaffarov bu yil maktab atrofiga panjara o'rnatib berishda ko'mak berishdi. Maktabimiz yonida joylashgan masjid imomi Abror Ravshanov ham doim ishlarimizda yordam berib keladilar.

O'quvchilar uchun yaratilgan sharoitlarni ko'rib, ochig'i, quvondik. Shunda ustozlarga bizni qiziqirgan bir savol bilan murojaat etdik: O'quvchilarning shinam va yorug' xonalarda bilim olishlari uchun sharoitlar yaratib

berdingiz. Shunda ham qaysidir o'quvchigizning past, darsga uy

vazifasini tayyorlamay keldi, shunday hollarda qanday yo'l tutasiz?

O'QUVCHIM DARSGA TAYYOR EMAS...

Said KARIMOV, boshlang'ich sinf o'qituvchisi:


– Bunday hollarda o'quvchidan darhol sababini surishtiraman. Agar uzrli sabab bo'lsa, kechirishim mumkin. Aks holda darsga tayyorlanmay kelgan o'quvchimga «0» ball qo'yaman. Uni shu tariqa jazolayman. Ayrim o'quvchilarimga uy vazifasini o'tonasi bajarib bersa, daftariga «O'tasiga «4» yoki «5» baho», deb yozib qo'yaman. Bu baho o'zining emasligini bolaga shu tariqa tushuntirgan bo'laman. Shunda ham o'quvchiga ta'sir o'tkaza olmasam, o'tonasi chaqirishga majbur bo'laman.

(Davomi 4-betda.)

USTA VA CHARXPALAK

Shoyim BO'TAYEV

(Ertak-qissa)



Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.

Tog'ni ursa talqon qilgudek oyog'idan o't chaqrab turgan yosh-yalanglar har ikki sohildagi qishloqlarni allaqachonlar tark etib ketishgan, ular allaqaylarda o'z baxtlarini izlab yurishardi. Ammo Ustaning nazdida tug'ilgan joydan o'zga manzillarda baxt topilishi mumkin emasdek ko'rinardi. Axir nafaqat odam bolasi, qushlar ham, hayvonlar ham, hattoki, hasharotlar ham qayerda bo'lishmasin, oxir-oqibat tug'ilgan joylariga qaytishadi va shundagina baxtni topishadi. Ammo bu baxtning ularga keragi bo'lmaydi.

«Endi nima qilsam ekan?»

Ustaning xayolida faqat shu o'y edi.

MISH-MISH

Shu kunlarda Usta yashayotgan qishloqda g'alati mish-mish tarqalib qoldi. Ishonishni ham, ishonmaslikni ham bilmaydi odam. Ishonay desa, aql bovar qilmaydi, ishonmay desa, o'z ko'zim bilan ko'rdim, deya ikki oyoqni bir etikka tiqib olgan duppa-durust odamlarni ahmoqqa chiqarib qo'yish mumkin.

Xullas, gapning po'stkallasi, eshagining hiylasidan bezor bo'lib, odamlarning og'ziga tushgan va maslahat so'rab Ustaning oldiga kelgan o'sha tuz-savdogarning uyida bir sichqon bor emish. Unchalik katta ham, unchalik kichkina ham emas, o'rtacha gavdali bir sichqon emish. Kulrang tusda emish. Ko'rinishidan boshqa sichqonlardan uning hech-hech farqi yo'q emish: qulog'iyam, ko'ziyam, dumiyam, qorniyam, oyoqlariyam... Ishqilib, sichqonga xos nimaiki bor, boshqa sichqonlarda qanday bo'lsa, unda ham shunday emish. Ammo jumlayi jahondagi barcha sichqonlardan uning birgina farqi bor emish. Farq bo'lgandayam ko'z ko'rib, quloq eshitmagan farq emish, o'zi mushtumdekkina bo'lgani bilan savdogarnikidagi sichqonni yuragi otning kallasidek emish, sheryurak emish u.

O'zi mushtumdekkina bo'lsa-yu, yuragi otning kallasidek bo'lsa?! Bu qanaqasi?

– Bo'lmagan gap, – deyishdi bu gapni eshitib aqlariga sig'dira olmaganlar qo'l siltab. – Hamma sichqondayam yurak bir xil bo'ladi. Chumchuq «pirr» etsa, yuragi «shirr» etadi. Sherning yuragi shervachchada bo'ladi.

Ammo shunaqa gaplarni gapirganlar ham savdogarnikiga borib sichqonni o'z ko'zlari bilan ko'rib kelishgach, tillarini tishlaganacha indamay qo'ya qolishdi. Sichqonning xatti-harakatlari, qiliqlari chindanam g'alati ekan: qadimgi bahodirlar kabi u hech ikkilanmay har qanday odamning oldiga tap tortmay kelaverarkan. Kelgani-ku mayli, ikki oyoqda turib, qo'lchasining beliga tiraganacha qorinchasini oldinga chiqarib, o'zing kimsan, deganday ko'zga tik boqib turishi ancha-muncha «dovyurakman», deb yurganlarning ham esxonasini chiqarib yuborayozarkan. Shunaqa ekan. Kaltakdan qo'rqmas ekan. Mushukka tikka chang solarkan, itni masxara qilarkan. Savdogar hayron emish. Uning dasturxon ustiga ham bostirib kelaverishi, xohlagan taomiga teginishi jahlni chiqarsa-da, o'ldirib yuborishga ko'zi qiymasmish. Uyida shunaqa g'alati jonivor bo'lgani, odamlarning e'tiborini tortayotgani, xalqning og'ziga tushgani unga ma'qul emish.

(Davomi bor.)



**R a h b a r
A Y U P O V A ,
mehnat ta'limi
fani o'qituvchisi:**

– 20 yildirki, ushbu maktabda saboq berib kelyapman. Hozirgi davr bolalarining ongi juda rivojlangani bilan, ayrimlarining

tarbiyasi havas qilgudek emas, deb hisoblayman. Ko'pgina ota-onalar ro'zg'or tashvishi bilan bo'lib, farzandlariga yetarlicha vaqt ajrata olmayaptilar. Agar o'quvchim shunday vaziyatga tushib qolsa, avval unga yaxshi gapiraman.

Bo'shi 3-betda.

Hadislardan oyatlar keltirib, uni to'g'ri yo'lga solaman. Hammaning oldida izza qilmay, darsdan so'ng o'zi bilan alohida suhbatlashaman. Shunday qilsam, ko'p hollarda yaxshi natijaga erishaman.

Zulayho ABDULLAYEVA, 1-sinf o'qituvchisi:

– 1-sinf o'quvchilari hali erkatoy bolakay hisoblanadilar. Sal qattiqroq gapirib yuborsangiz, yig'lab ham beradilar. Yig'layotgan o'quvchimni shirin gaplar bilan ovutib olaman. Shunday holat yuz bermasligi uchun o'quvchilarimning har birini fe'l-atvorini yaxshilab o'rganib, shunga ko'ra ish tutaman. Darsimni iloji boricha o'yin tarzida o'taman. Shunda ham o'quvchim dars tayyorlamay kelsa, darsdan so'ng qolib, darslarini tayyorlataman. Bunday hol yana takrorlansa, ota-onasi bilan gaplashaman.

ILONNI INIDAN

CHIQRUVCHI SO'Z

276-maktab o'qituvchilari yaxshi gap bilan o'quvchini tarbiyalashlari bizni quvontirdi. Baqirib o'z obro'sini tushirgandan ko'ra, yuqoridagi usulni qo'llab, yaxshi natijalarga erishayotgan bo'lsalar, ajabmas. Shundanmi, maktabdagi eng to'polonchi o'quvchi ham ustoziga: «Labbay, ustoz», «Xo'p bo'ladi, ustoz», deya qo'llarini ko'ksilariga qo'yib javob berishar ekan. Bundan ustozlar ham xursand, shirinso'z eshitib bilim olayotgan o'quvchilar ham shod. Bunday muomaladan farzandlarini: «Eti sizniki, suyagi bizniki», deya ustozlar qo'lga topshirayotgan ota-onalar ham o'ylashimizcha xursand bo'lishsa kerak. Siz nima deysiz, aziz o'quvchi?

NAVBAT O'QUVCHILARGA

Yuqorida 276-maktab va u yerda o'quvchilarga shirin-zabon bilan ta'lim-tarbiya berayotgan ustozlar haqida tasavvurga ega bo'ldingiz. Endi shu maktab o'quvchilarining so'zlariga quloq tutib ko'ring-a:

**6-«A» sinf o'quvchilari
Tursunboy NIG'MATILLAYEV,
Rufat RO'ZIMURODOV:**

– Ikkimiz ham futbolga juda qiziqamiz. Darslarimiz tugagach, Beltepadagi sport-kompleksiga shoshilamiz. Chunki u yerda o'zimiz tengi bolalar bilan mazza qilib to'p suramiz-da. Kelajakda Mirjalol Qosimov, Maksim Shatskix, Server Jeparov singari yurtimiz sha'nini himoya qiladigan futbolchilar bo'lib yetishmoqchimiz.

**Abdulaziz
NIG'MATOV, 6-
«A» sinf o'quvchisi:**

– Men chet tillariga juda qiziqaman. Ingliz, arab tillarini o'rganishga puxta bel bog'ladim. Arab tilidan menga



Bahriddin aka saboq berayaptilar. Hozir bemalol bu tilda yozib, o'qiy olaman. Yana o'ymakorlik to'garagiga ham qatnashaman. Axir bobolarimiz «Yigit kishiga qirq hunar oz», deb bejiz aytishmangan-ku...

Ozoda ABDULLAYEVA, 7-«V» sinf o'quvchisi:



– Maktabimizda keyingi yillarda juda katta o'zgarishlar yuz berdi. Koridorlarimiz, sinf xonalarimiz qaytadan ta'mirlanib, yangi jihozlar bilan to'ldirildi. Bu sharoitlarga javoban faqat yaxshi o'qishimiz, ustozlarimiz va direktorimizning bizga bo'lgan ishonchlarini oqlashimiz darkor.

Saidbrohim BURXONOV, 7-«V» sinf o'quvchisi:

– Men sportning karate turiga juda qiziqaman. Darslarim tugagach, ukalarim bilan birgalikda «Alpomish» klubiga qatnaymiz. Mana to'rt yildirki, ustozimiz Muzaffar akadan karatening eng nozik jihatlarini o'rganishga harakat qilayapman. Yaqinda Chirchiqda o'tkazilgan musobaqada faxrli ikkinchi o'rinni oldim. Kelajakda bundan ham yuksak natijalarga erishib, maktabimiz nomini yuksaklarga ko'tarmoqchiman.




Nigora RAHIMOVA, 8-«V» sinf o'quvchisi:

– Men sinfimizda sardor yordamchisiman.

Matematika, mehnat, ona tili, adabiyot fanlariga juda qiziqaman. O'qishimdan so'ng 299-maktab qoshidagi to'qish, munchoqlar bilan bezash to'garaklariga qatnashaman. O'zimga va yaqinlarimga jemper, paypoqlar, shapkachalar to'qib, barchani birdek xursand qilishga harakat qilayapman.

Munisa HOJIAKBAROVA, 6-«A» sinf o'quvchisi:

– Maktabimizdagi kutubxonaning eng faol a'zosiman. Kutubxonamizga qadam qo'yishingiz bilan xuddi kitoblar dunyosiga kirib qolganek bo'lasiz. Kutubxonachi opamiz ham bizga juda mehribonlar. Kerakli kitobimizni aytisak, darrov topib beradilar.



Kelajakda shifokor bo'lmoqchiman. Bu sohani mukammal egallash maqsadida, hozirdanoq bilimimni oshirib borayapman. Bu borada esa maktabimiz kutubxonasidan bemalol foydalansam bo'ladi.

Nazokat TOJIBOYEVA, 9-«V» sinf o'quvchisi:

– Bitiruvchi sinflarda mas'uliyat juda katta bo'larkan. Chunki kelajakda kim bo'lishni avvaldan tanlash, shu yo'nalish bo'yicha bilim olishga harakat qilishimiz kerak. Sinfodoshlarim bilan bu borada har kuni tortishamiz, hatto bahslashib ham ketamiz. Men kelajakda shifokor bo'lmoqchiman. Boshqa sinfdoshlarim ham allaqachon qaysi kasb egasi bo'lishlarini tanlab bo'lishgan. Qaysi kasbni egallamaylik, ona yurtimizga kerakli inson bo'lib yetishsak bas...

**Gulyuz ORIFJONOVA,
Ozoda TURSUNBOYEVA**

– Darrov xo'p deya qoldingmi? Onam xavotir oladilar, uyga borib, birrov aytib kelay, demadingmi?

– Buvim tengi xolaning gaplarini qaytara olmadim. Uzumlari anchagina ekan. Ishni tugatgandan so'ng bir chelagini qo'limga tutqazdilar, lekin olmadim. Yaxshi qilibmanmi, oyijon? O'zingiz aytgan edingiz-ku, savob ishni beminnat qilgin, deb.

Jahli chiqib turgan Risolat aya biroz o'ylanib qoldi-da, so'ng:

– To'g'ri aytasan, bolajonim, savob ishni

beminnat qilish kerak, – dedi mamnun ohangda.

Manzura UBAYDULLAYEVA

Kech kirib qoldi hamki, Azizdan darak yo'q. Qayoqlarda yuradi bu bola? Qorni ochib, hali zamon kirib keladi. Har kuni shu ahvol. Yo biror bir ishi chiqib qoladi yoki kimdir kasal bo'ladi.

– Assalomu alaykum, oyijon.


Risolat aya unga norozi boqdi.

– Ha, yana nima bo'ldi, nega kech qolding? Bugun birovning mushugi yo'qolibdimi?

– Yo'g'e, oyijon! O'zingiz aytgansiz-ku, «Savob ishni har kim, har kuni qilishi kerak», deb. Yuribman har kuni savob ishlar axtarib, sizga yoqadigan o'g'il bo'lay deb. Qo'shnimiz Adolat xola borlar-ku, maktabdan uyga shoshib kelayotsam, to'xtatib:

– Hoy, Azizjon bolam, buving o'rgilsin, meni shu uzumlarimni terib ber, uvol bo'lib qolmasin, chumchuqlar yeb ketyapti, – dedilar.

BEMINNAT SAVOB



Himmat

TO'QQIZINCHI MO'JIZA

YAXSHI BOLA



«YAXSHI BOLA» degan nomga sazovor bo'lish. Qanday yo'l tutsang, yaxshi bola bo'lasan? Ke, bir o'ylab ko'ramiz.

Sen bugun sakkiz yoshda, balki o'n uchdadirsan. Hali hayotda ko'p narsalarni o'rganishing kerak.

O'tgan safar Sen bilan shu to'g'rida gaplashgan edik. Balki o'qigandirsan, balki o'qimagandirsan... Shu bois birinchi saboqning «Kirish so'zi»ni eslatib o'tamiz.

«Sen bolasan. Turgan gapki, hali ko'p narsalarni bilishing kerak. Bu ko'p narsalar ichida eng muhimi – seni tarbiyang. Inchunun, yaxshi tarbiya topsang, obro'-martabang joyida bo'ladi, ertaga hayotda unchalik qiynalmay yashaysan. Shu bois ham tarbiyani TO'QQIZINCHI MO'JIZA, deb atash mumkin.


Sen uchun hozirgi kundagi eng muhim jihat –

Sen uchun hozirgi kundagi eng muhim jihat –



marta sinfdoshlaring katta o'qishlarga kirganda, keyin el og'ziga tushib, hurmatli odam bo'lishganda ko'nglingdan «Men nega bunday odam emasman?» degan savol kechadi-yu, afsus qilasan. Ammo, aslo bu kunlarga tushmagin, bolajon. Bobong bunday g'amlarni senga yaqin kelishini aslo istamaydi. Agar so'zimga quloq solsang, sen hamma ishni ustozni hurmat etishdan boshla. Bilib qo'yki, ustoz degan so'zni tilga oldingmi, uning mas'uliyatini ham his eta bilmog'ing zarur. Chunki ustoz – buyuk so'z, uning qarshisida ne-ne ulug' zotlar ta'zimda turadilar. Hazrat Alisher Navoiy bobong ham o'z paytida bir harf o'qitgan ustozning haqini bir umr yiqqan boyliging bilan ham qaytarib bo'lmaydi, deb behudaga aytmagan. Qara, bizni qanchalik ajoyib tariximiz va bu xazina sandiqlarida ne-ne o'lmas hikmatlar, durdonalar bor. Ularni terib olsang, sendan ulug' kishi bo'lmaydi. Bilib qo'yki, seni kelajak, Vatan kutmoqda.

Endi quyidagi rivoyatni o'qi:



RIVOYAT

Qadimda bir amaldorning Oshkor tanbal ismli o'g'li bor ekan. Maktabga piyoda bormas, uni shohona aravada yetkazib qo'yishar ekan. Hatto ovqatini ham ortidan olib borisharkan. Uni tushlikda ovqatlantirishda ham bir xizmatkor ovora bo'larkan. Bir kuni ularning shahriga SehrGAR bobo kelib, bolalarga har xil sovg'alar tarqata boshlabdi. Lekin u sovg'alarni tekinga tarqatmas ekan. Har bitta sovg'ani olish uchun bolalarning bir necha sinovdan o'tishlari kerak bo'larkan.

Sovg'a olish navbati Oshkor tanbalga kelibdi.

SehrGAR bobo oltin qilqalamni ko'rsatib:

– Bu o'zi yozar qilqalam, uning mo'jizalari ko'p! – debdi.

Qilqalam Oshkor tanbalga yoqib, og'zi qulog'iga yetibdi. Bunday qilqalamni qo'lga kiritisa, qanchalik yaxshi.

Uning otasi odamlarini jo'natib, sovg'ani katta mablag' evaziga unga olib bermoqchi bo'libdilar, ammo SehrGAR bobo bunga ko'nmabdi va Oshkor tanbalning o'zini o'rtaqa chaqiribdi.

– Juda qiynamayman seni, oddiy savollar beraman, javob bersang, o'zi yozar qalam seniki! – debdi.

Oshkor tanbal katta qornini silkillatib o'rtaqa chiqibdi.

SehrGAR bobo unga juda oson savol beribdi:

– Non nimadan tayyorlanadi, bolam?

Oshkor tanbal shu ham savol bo'ldimi, deya katta qornini silkillatib kulibdi va xizmatkorini ko'rsatib:

– Ana u tayyorlaydi nonni! – debdi.

Maktabdoshlari hoholab kulishibdi.

SehrGAR bobo:

– Shirindan-shirin nima? – deb so'rabdi.

Oshkor tanbal yana hihilabdi va:

– Shuni ham bilmaysizmi? Bu qog'ozqand-ku! – debdi kerilib.

Yana hamma hoholab kulibdi.

SehrGAR bobo:

– Achchiqdan-achchiq nima? – deb so'rabdi.

– Qalampir! – debdi Oshkor tanbal.

SehrGAR bobo hoholab kulayotganlarga qarab:

– Kimki ustozini tinglamas ekan, ana shunday kulgili holatga tushadi, – debdi va bolalarga qarab, kim bu savollarga javob beradi, deb so'rabdi. Hamma bolalar qo'l ko'taribdi. Ammo SehrGAR bola kichkina bolani tanlabdi va uni o'rtaqa taklif etibdi. Bolachaning bo'yi Oshkor tanbalning beligacha ham kelmas ekan. Oshkor tanbal unga mensimay qarabdi.

SehrGAR bobo savollarini qaytaribdi.

Bolacha biyron:

– Non bug'doy unidan tayyorlanadi. Shirindan-shakar narsa bu biz bolalarmiz. Achchiqdan-achchiq narsa – o'limdir! – deya javob qilibdi.

– Bularni kimdan o'rgangansan? – so'rabdi SehrGAR bobo.

– Ustozimdan! – javob qilibdi bolacha.

Hamma xursand bo'lib, uni olqishlabdi.

SehrGAR bobo esa unga oltin qilqalamni sovg'a qilibdi.

Oshkor tanbal el ora masxara bo'libdi, bolachaning esa obro'si ko'tarilib ketibdi.

To'qqizinchi mo'jiza – yaxshi tarbiyaga ega bo'lganda, Oshkor tanbal ilm olishning ma'nisiga yetib, ustozining gapiga kirganda, a'lo o'qiganda, o'rtoqlari orasida bunday sharmanda bo'lmasdi. Tarbiyasizlik – falokat, bilimsizlik – obro'sizlik keltiradi.

Shahnoza va Saodat

Bugun Ustoz va murabbiylar kuni. Sen ularga katta-katta sovg'alar olib borma. Sen o'z ustozingga bir og'iz shirin so'zingni ayt. «Rahmat, ustoz, hammasi uchun rahmat! Men Siz orzu qilganday yaxshi kishi bo'lib yetishaman», deb ayt! Ustozing tog'dek o'sadi. O'zing ham tog'dek bo'lib yur.

2. KARLSON ENAGALIK QILADI

Davomi. Boshi o'rgan sonlarda.

Shunday qilib, uydagilar Bolakayni yolg'onchiga chiqarishdi.

– Hech qanaqa uchar odam yo'q, uni o'zing to'qib chiqargansan, – deyishdi. Hatto dadasi ham: «Bo'lmag'ur xayollarni yig'ishtir, o'g'lim, undan ko'ra darsingni qil», dedi. Bolakayga biram alam qildi, biram alam qildiki... Qani endi shu tobda g'izillab Karlson kelib qolsayu, uni ota-onasiga, anavi qaqildoq Betan onasi bilan masxaraboz Boss akasiga ko'rsatib, o'zini oqlab olsa!


Aksiga olib, Karlson kelmayapti. Axir bugun u, senga tomdayi uyhamni ko'rsataman, deb va'da bergan edi. «Men taxminan soat uchlarda yetib kelaman, – dedi Karlson, – ehtimol to'rt bilan beshning orasida kelib qolarman. Harqalay, soat yetti yo sakkizlarga qolmay uchib kelishim aniq. Meni kutib o'tir, Bolakay. Ha, aytgancha, shokolad, konfet olib qo'yishni unutma. Bilasan-ku, men konfetni yaxshi ko'raman».

Mana, cho'ntagiga bir hovuch konfet solib, qachondan beri Bolakay kutib o'tiribdi.

Biroq, Karlsondan darak yo'q. Bolakay rostdan ham Karlson degani yo'q narsa bo'lsa-ya, ahmoq bo'lib dunyoda yo'q odamni kutib o'tirgan bo'lsam-chi, deb gumonga bora boshladi. Shu payt vizillagan tanish ovoz eshitildi. Derazadan zuv etib Karlson uchib kirdi. Uning kayfi chog' edi.

– Seni rosa kutdim, – dedi Bolakay, – endi kelmaysanmi deb umidimni uzmoqchi edim.

– Men senga taxminan soat uchda dedim-ku! Taxminan deganda besh-olti



VA BOLAKAY HAQIDA QISSA

Uchdikmu?

– Men ucholmayman-ku, nima qilaman?

– Sen uchmayсан, – dedi Karlson, – men seni yelkama mindirib olaman. «Bir, ikki, uch!» deganda tomga qarab uchamiz. Lekin aytib qo'yay, qo'lingga ehtiyot bo'l, parrakka tegib ketmasin, barmoqsiz qolasan-a...

– Meni ko'tarib tomgacha uchib chiqishga kuching yetarmikin, deb qo'rqib turibman, Karlson...

– Men ham shuni o'ylab qoldim, – dedi Karlson, – seni yelkama ko'tarib tomga yetkazib olarmikinman? O'zing ham eplikinasan-da, og'ayni. Agar juda og'irlik qilsang, tashlab yuboraman-da.

Bolakay o'zining yerga tushib ketayotganini ko'z oldiga keltirib mung'ayib qoldi.

– G'am yema, – dedi Karlson, – ja-a-a unchalikka bormas, ishqilib, motor ishdan chiqmasa bo'lgani...

– Ishdan chiqsa-chi, nima bo'ladi?

– Nima bo'lardi, dumalab yerga tushamiz. Qo'y behuda xayollarni, tavakkal deb uchamiz. Bo'la qol.

– Hozir, uydagilarga xat yozib qoldiray, – dedi Bolakay, – kech qolsam, xavotir olishmasin.

Bolakay bir varaq qog'oz olib: «Men tepada, Karlsonning yonidaman», deb xat yozdi-yu, stolga qo'ydi. Uchib-netib ketmasin deb kitob bilan bostirdi. Ungacha Karlson Bolakaydan olgan konfetlarini paqqos tushirib bo'lgan edi, qistalang qildi:

– Qani, yelkama mina qol, ketdik!

soatning farqiga borilmaydi. Konfet obkeldingmi?

– Ha, mana.

– Beraqol! Shirin konfetni biram sog'indimki...

Karlson bir hovuch konfetni qo'shaloqlab og'ziga soldi-da, g'o'ldiradi:

– Tay...

Tay yormisan?



Ko'ngil daftari

ONAJON

Yig'layotgan men edim kecha, Oromingni yuvdi yoshlarim. Alla aytib erta tonggacha, Yuragimda qolding, onajon.

Uyg'oq bo'lsam qarshimda turib, Mehring ila sevding borimni. Ko'zlarimda ko'zingni ko'rib, Gavhar bo'lib qolding, onajon.

Garchi mening oddiy so'zlarim, Qalbga qasam, Ollohga qasam. Shu qatralar ming jonim haqqi, Zulmatimda kunduzim, onam.

Farzand bo'lib bitta bag'ringni, To'ldiolsam qolmagay armon. Bu dunyoda sening o'rningni, Bosolmaydi hech kim, onajon.

Nafisa RUSTAMOVA,
O'zMU jurnalistika fakultetining
III bosqich talabasi

BUVIJONIM



Boldan shirin so'zingiz, Porlab turar yuzingiz. Nur sochadi ko'zingiz, O'zimning buvijonim.

Duoningiz bizlarga yor, Qalbingiz misli bahor. Sizga bo'lay dastyor, O'zimning buvijonim.

Ertagingiz xilma-xil, Aqlimga qo'shar aql. Bo'lma deysiz noaql, O'zimning buvijonim.

Nur bo'lay yo'lingizga, Gul tutay qo'lingizga. Havasim kelar sizga, O'zimning buvijonim.

Ozoda ESHMIRZAYEVA

POLIZDA...



Ta'vil payti borgan edik biz polizga, Poliz esa to'lgan ekan xo'p tarvuzga. Shakar emas asal bo'lib Shakarpalak, Asaldan ham o'tib tushibdi handalak.

Xo'p sarg'ayib pishibdi-da Obinovvot, Uning yonida hech gapmas hatto novvot. Barchasini yetishtirgan bobodehqon, Doim kulib yursin, doim bo'lsin omon.

Yorqinoy ISMANOVA,
Namangan viloyati, Norin
tumanidagi 42-maktabning
6-«A» sinf o'quvchisi

O'shanda 3-sinfda o'qirdik. Do'stim Sa'dullaning keltirgan xabari tinchimizni buzgan:

– O'rinboyniing shaftolisi pishibdi.

Biz bolalar darsdan chiqqach, o'z yo'limiz qolib, O'rinboyniing ko'chasidan qatnaydigan bo'lganmiz. Yo'l bo'yida ekilgan shaftoli daraxtining ko'zni quvontiradigan mevalarini ko'rib, ko'zlarimiz chaqnagan. Mening nazarimda dunyodagi eng baland daraxt bu O'rinboyniing shaftoli daraxti bo'lgan. Garchi qancha tosh otsak ham shaftolilarni sira yerga tushgisi kelmasdi.

Bir zayil qaddini g'oz tutib yuradigan, O'rinboyniing chiqib qolishidan qo'rqib-qo'rqib tosh otayotgan bolalarning toshlari nuqul havoga ketardi. Biz kunda zo'rg'a bir yoki ikki dona shaftoli urib tushirish baxtiga muyassar bo'lardik. Shaftolilarni doim Sa'dulla urib tushirgan bo'lardi. Chunki Sa'dullaning otasi Iskandar mergan bir paytlar tog'dan bir yo'la uchta ayiqni otib olgan ekan. O'shandan beri qishloqdagi yosh-u qari Sa'dullaning otasini



O'rinboyniing shaftolisi

Nikona

Iskandar mergan deya e'zozlaydi. Qonida merganlik borligi uchun ham shaftolini ko'proq Sa'dullaning otgan toshlari tushirardi. Oradan yillar o'tdi. Bizlar ulg'aydik. Men xo'jalikda bosh hosilot, Sa'dulla esa maktabda direktorning birinchi o'rinbosari bo'lib ish boshladi. Kunlarning birida nogahon yo'lim O'rinboyniing ko'chasiga tushib qoldi. Bolalikni esladim. Kuzda biz bolalar uchun qarddon bo'lgan ko'cha. Bolalikdagi shaftoli daraxti... Oradan yigirma yillardan oshiq vaqt o'tibdi-ki, shaftoli daraxti hanuz o'z o'rnida edi. Bizning bolalik yillarimizni yodga solib turadigan o'sha qarddon shaftoli daraxtimikin yoki... Balki O'rinboy

shaftolining o'rniga yana shaftoli ekkandir? Bu biz uchun qorong'u. Ammo nima bo'lgan-dayam, bir sirning guvohi bo'ldik. Shaftoli daraxtining tanasi kengayib, bo'yi kichrayibdi. Bolalikda shaftoli daraxtiga qancha tosh otgan bo'lsak-da, O'rinboyniing uydan chiqqanini ko'rmanmiz. Hozir esa u uyidan chiqib keldi. Oldingi shashti, g'oz yurishidan asar ham qolmagan edi.

Ko'pdan beri O'rinboy bilan ko'rishmaganimiz uchun quchoqlashib ko'rishdik. Xayolim hanuz shaftoli daraxtida edi. Kichrayibdi... Balki biz bolalar o'sgandirmiz. Bolalikdagi ko'rgan daraxtimizga sira o'xshamas edi. Mumkin, har yili kuzda boshidan betinim tosh yog'ilaverib shu kuyga tushgandir-da. Nima bo'lganda ham, bizning bolalik xotiramizda qolgan, dunyodagi eng baland daraxt bu O'rinboyniing shaftoli daraxti edi.

Ahtamqul KARIM

IKKI QO'YMAVDIGAN

Mushtariy, Aziz va Dildora Hamza tumanidagi 212-maktabning 4-«V» sinfida o'qir ekanlar. Tahririyatga kelib: «Sizga aytadigan zarur gaplarimiz bor, 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kunida «Tong yulduzi» sahifalarida e'lon qilasizlarmi?» degan savol bilan murojaat qilishdi. Qanday zarur gap ekan, deya ularga quloq tutdik.



**A z i z
ABDULLAYEV:**

Sizlarga ustozimiz haqida ozgina gapirmoqchiman. Birinchi marta qo'limga ruchka tutqazgan, o'qish-u yozishdan bilim bergan ustozimni hammadan ko'proq men yaxshi ko'raman.

Dildora KELDIBOYEVA: – Men ham ularni qattiq hurmat qilaman. Chunki ustozimiz tushunmagan narsalarimizni urishmasdan tushuntirib beradilar. Katta bo'lsam, albatta birinchi ustozimdek o'qituvchi bo'laman.



Mushtariy RAJABOVA:

– Agar darsga uy vazifasini bajarmay kelsak, ustozimiz bizga ikki qo'y maydilar. Aksincha, bizga yana bir marta imkoniyat beradilar. Shunday qilganlari uchun ham sinfdoshlarim uyalib, keyingi darsga tayyorlanib keladilar. Yana «2» bahodan ham qutulib qoladilar.

Bu uch o'quvchidan ustozlarining ismlarini so'raganimizda, ular baravariga: « Birinchi o'qituvchimiz Shahlo Otaboyeva», deb javob berdilar.

Otaboyeva», deb javob berdilar.

Shahlo Ziyodovna haqida hamkasblari bir muncha iliq fikrlar bildirishdi. Darhaqiqat, muallima 13 yildan buyon o'quvchilarga saboq berayotgan bo'lsa-da, hali bu kasbni tanlaganidan afsuslanmagan ekan. 1994-yil ish faoliyatini Hamza tumanidagi 198-maktabda boshlagan yosh muallima o'quvchilarini o'z farzandidek ardoqlab mehr qo'ygan. Avvaliga shogirdlari qalbidan shirin



so'zi bilan, keyin esa berayotgan bilimi bilan chuqur o'rin egallagan.

Ayni kunlarda esa shu tumanning 212-maktabida ta'lim berayotgan muallima hanuz shogirdlari ardog'idagi ustoz bo'lib, o'quvchilariga odob-u axloq qoidalarini ham o'rgatmoqda. Maktabda Xotin-qizlar qo'mitasi raisi vazifasida ish olib borishi esa Shahlo Otaboyevaning jamoat ishlarida ham faol ekanligidan dalolat beradi.

Bunday ustozlar boshqa maktablarda ham bisyor ekanligini bilamiz. Ammo shogirdlarining o'zlari tahririyatga tashrif buyurib, ustozlari haqidagi mehr to'la aytgan so'zlariga befarq qaray olmadik. Shunday ekan, bir-biriga mehr-oqibatli ustoz va shogirdlarga ko'z tegmasin, deb qolamiz.

Mening o'qituvchim



M. MIRZAJONOVA

7

ABALASH TESTI

Bo'sh o'tirmay, bosh qotir!

1. Xotira va qadrlash kunini belgilang:

- A. 9-may;
B. 21-mart;
D. 31-avgust;
E. 1-oktabr.

2. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1984-yil 20-noyabrda qabul qilingan bolalar huquqlari to'g'risida konvensiyasiga O'zbekiston qachon qo'shilgan?

- A. 1994-yil 29-iyunda;
B. 1997-yil 26-mayda;
D. 1999-yil 16-sentabrda;
E. 1996-yil 5-oktabrda.

3. O'zbekistondagi eng uzun daryo:

- A. Amudaryo;
B. Sirdaryo;
D. Norin;
E. Zarafshon.

4. Osmon - o'tobi bilan, Odam -... bilan.

- A. Aqli;
B. Odobi;

- D. Zehni;
E. Obro'yi.

5. Yerning yo'ldoshi:

- A. Quyosh;
B. Yulduz;
D. Oy;
E. Yo'ldoshi yo'q.

6. Respublikamizdagi eng yosh viloyat:

- A. Samarqand;
B. Andijon;
D. Navoiy;
E. Sirdaryo.

7. Qaysi sport turiga koptok kerak bo'lmaydi?

- A. Voleybol;
B. Tennis;
D. Shaxmat;
E. Bilyard.

8. Tohir Malik kim?

- A. Shoir;
B. Yozuvchi;
D. Olim va shifokor;
E. Siyosatchi.

BUGUNNING



«YANGI AVLOD» LARI

Xadicha IMOMNAZAROVA – 7 yoshda, 102-maktabning 1-«V» sinf o'quvchisi, 2006-yilda o'tkazilgan «Yangi avlod» festivalining «Estrada qo'shiqchiligi» yo'nalishi g'olibi.



Yoqtirgan fani: rasm.

Ertagi: «Alenkiy svetocek» (Qizil gul).

Multifilmi: «Senimi, shoshmay tur!», «Tom va Jerri».

Qo'shiqchisi: Maykl Jekson.

Sport turi: suzish.

Tuomi: osh, kotlet va quymoq.

Rangi: pushti, havo rang, sariq.

Xorijiy tillari: ingliz va rus tillarini mukammal o'rganishga harakat qilaypti.

San'atdan tashqari qiziqishlari: bo'sh vaqtlarida raqs, shaxmat, rasm chizish bilan shug'ullanadi.

– Eng katta orzuim kelajakda mashhur qo'shiqchi bo'lish va O'zbekistonni o'z qo'shiqlari orqali madh etishni xohlayman. O'zbek qo'shiqchilik san'ati rivojiga o'z hissamini qo'shish, ota-onam, ustozlarimdan olayotgan bilimlarimni oqlash – mening burchim. «Yangi avlod» festivali sovrindori nomiga sazovor bo'lganimdan so'ng, men Rossiya, Fransiya kabi davlatlarda qo'shiq ijro etishdek baxtga musharraf bo'ldim. Shunday ekan, festival boshqa bolalar uchun ham ana shunday poydevor bo'lib xizmat qilishini istardim, – deydi tengdoshingiz Xadicha.

Bobur NAZARMUHAMMEDOV tayyorladi

Siz nima deysiz?

9 yoshli Olimjonning shu holati to'g'rimi?

O'quvchi kattalarga nisbatan qanday munosabatda bo'lishi kerak?




8 yoshli Nilufar haqida nima deysiz?



13 yoshli Anvar samolyot yasabdi. Siz-chi? Siz nimalarni ixtiro qilmoqchisiz?




Izoh bering; 18 yoshli Ahmadjonning tishi nega og'rib qoldi?



Eslatma: To'g'ri javob yo'llaganlar uchun gazetemizning qimmatbaho sovg'asi bor.

Bu ajib dunyo**SHOLG'OMNING
YANA BIR
XUSUSIYATI**

Fransiyalik olimlar sholg'om sabzavoti ustida tajriba o'rganib, shunday xulosaga keldilarki, sholg'om arzon yonilg'i berishi ham mumkin ekan. Uning 1000 kilogrammidan 100-120 litr spirt ajratib olinadi. Ana shu spirt avtomashinalarni yurgizish va spirt lampalari yasab, elektr energiyani ham tejashi mumkin ekan.



davomida yozgan. U 1984 va 1988-yillarda o'tkazilgan Olimpiadalarning ham musiqasini bastalagan edi.

**HAM SHO'R, HAM
CHUCHUK SUV**

Hindistonda Sambor deb ataladigan ko'l bor. Uning suvi yilning yetti oyida sho'r, besh oyida chuchuk bo'lib turarkan. Shuningdek, suv tarkibida osh tuzini beradigan xlorli natriy ham mavjud ekanki, bu Hindistonning Markaziy hududini tuz bilan ta'minlaydi.

**IKKI YIL YOZILGAN
MUSIQA**

Amerikalik bastakor Jorjio Moroder 2008-yilgi Olimpiadaga bag'ishlangan «Abadiy do'stlar» madhiyasini yaratdi.

J.Moroder mazkur musiqiy kompozitsiyani Xitoy pianinotchisi Kun Syan bilan hamkorlikda ikki yil

**LIMONDAN TOK**

Siz choysiga solishni xush ko'radigan limondan bir ingliz soatsozi elektr toki olishda foydalanmoqda. U limonga rux va misdan o'tkazgich ulab, elektron soatni ishlatib yuboradi. Ko'p o'tmay soat to'xtab qolgandir, deb o'ylarsiz? Yo'q, bu antiqa soat roppa-rosa besh oy ishlaydi.

**«ЯНГИ АВЛОД - 2007»**

**РЕСПУБЛИКА БОЛАЛАР
ИЖОДИЁТИ ФЕСТИВАЛИ**
3 йил ичида ҲОЛИБЛАР Сони - 384 та!
**ЁШИНИ 6 дан 14 гача БЎЛСА,
СЕН ҲАМ ҲОЛИБЛАР ҚАТОРИГА ҚЎШИЛ!**

Ўз йўналишингни танла:

- Мумтоз ҲОЛИБЛАР (фортелиано, торли, зарбли ва бошқа созлар)
- Миллий ҲОЛИБЛАР (торли, чертиб чагинадиган, зарбли созлар)
- Вокал (анъанавий ижро, академик ижро, эстрада)
- Рақс (миллий, бал, спорт, замонавий рақслар, балет)
- Амалий ва тасвирий санъат
- Шеърят, насрий асарлар ва сахна асарлари.



АРИЗАЛАР
2007 йил 1 АВГУСТДАН 1 ОКТАБРГА ҚАДАР

«Келажак овози» Ёшлар ташаббуслари марказининг худудий бўлиmlари ва «Камолот» ёшлар ижтимоий ҳаракатининг вилоят, туман ва шаҳар бўлиmlарида қабул қилинади.

СЕНИНГ ИҚТИДОРИНГ + БИЗНИНГ ҚЎМАГИМИЗ

УМУМИЙ ҲАЛАБАМИЗ!!!

Батафсил маълумот учун телефон:

(998-71) 142-08-83, 142-05-56

www.fundforum.uz

e-mail: fonduz@mail.ru



8



Ochil dasturxon

«HOSIL» SALATI

Kerakli masalliqlar: 100 gr. sabzi, 100 gr. rediska, 100 gr. karam, 2 dona olma, 1 qoshiq o'simlik yog'i, ko'katlar.

Tayyorlanishi: archilgan sabzi, rediska, olmani yirik ko'zli qirg'ichdan o'tkazing. Yangi karamni somoncha qilib to'g'rang. Hammasini aralashtirib, o'simlik yog'ini qo'shing, ustidan

mayda to'g'ralgan ko'katlardan soling.

SABZI VA BODRINGLI SALAT

Kerakli masalliqlar: 3-4 dona sabzi, 3 dona bodring, 2 osh qoshiq ukrop, 1 stakan smetana yoki mayonez, ta'bga ko'ra tuz va shakar.

Tayyorlanishi: Sabzini archib yuing, yirik qirg'ichdan o'tkazing. Bodringni ham archib, yarim doirachalar shaklida to'g'rang. So'ngra, ikkalasini aralashtirib, ukrop, smetana, ta'bga ko'ra tuz va shakar qo'shing.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

Tabriklaymiz!

Toshkent shahar, Sobir Rahimov tumanidagi 46-o'rta maktabning matematika o'qituvchisi Ma'suda opa UMAROVA hamda boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Yoqut opa DADAMUHAMMEDOVANI 1-oktabr - O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan muborakbod etamiz. Kelajak avlodni tarbiyalashdek mas'uliyatli va sharaflil ishlarida muvaffaqiyatlar tilaymiz.

**9-«A» sinf o'qituvchilari nomidan
Abdullo HAMIDULLAYEV**



1-sinfga endigina qadam qo'ygan Dilshod maktabdan papkasiz qaytibdi.

- Iye, o'g'lim, papkang qani? - so'rabdi onasi hayron bo'lib.

- Har kuni olib borib, olib kelaveramanmi? Uni sinfga tashlab keldim, - debdi Dilshod kattalardek uddaburon.

Alifbe darsida kitobidagi rasmga qarab Olim hayron bo'libdi:

- Ustoz, mana bu qo'ylar o't yemay turaveradimi?..

- Ustoz, uy vazifasidagi mana bu misolning javobi qoldiqli ekan, - dedi Davron bilag'onlik bilan.

- Kim aytdi?

- Dadam...

- Muzaffar, chizgan rasmindagi olchalar nimaga ko'm-ko'k? - so'radi o'qituvchi.

- Axir hali yoz fasli kelmagan-da.

AZIZA tayyorladi

**Muassislar:**

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar ijtimoiy harakati,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

**BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV**

Dizayner va
sahifalovchi:
**Fazliddin
SHOYODGOROV**

Navbatchi:
**Ma'mura
MADRAHIMOVA**

Gazeta
O'zbekiston
matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Turobjon JO'RAYEV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV
(«O'zbekiston» NMIU Bosh
muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA,
Feruz JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Sobirjon SHARIPOV,
Ergashvov SARIQOV.

Manzillimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 144-27-25 144-63-08
Tel./ faks: (99871) 144-38-10

Rassomlar:
Nodira MIRZAYEVA,
Feruz MATYOQUBOV

Gazeta «O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy
uyida
chop etildi.
Gazeta haftaning
dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.

Adadi - 19010
Buyurtma N: J 4120